



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
JIZZAX FILIALI



**KOMPYUTER ILMLARI VA  
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**  
**XALQARO ILMIY-TEXNIK**  
**ANJUMAN MATERIALLARI**  
**TO'PLAMI**  
**1-QISM**



26-27-SENTABR  
2025-YIL



Google  
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK  
TEXNOLOGIYALARI**  
*mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari*  
*to‘plami*  
**(2025-yil 26-27-sentabr)**  
**1-QISM**

**JIZZAX-2025**

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

# RAQAMLI IQTISODIYOT UCHUN KADRLAR TAYYORLASH: OLIY TA'LIM TIZIMINING INNOVATSION YONDASHUVLARI

**To'ychiyeva Nodira**

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

[nodira070495@gmail.com](mailto:nodira070495@gmail.com)

**Annotatsiya.** Jahon oliy ta'lim muassasalarida innovasion faoliyatni boshqarishni takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotining shakllanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, yangi texnologik yechimlarni tijoratlashtirish va milliy innovasion tizimni mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, kadrlar, oliy ta'lim, innovatsiya, zamonaviy boshqaruv, model.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlari asosida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovasion tadbirkorlik va rasionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovasion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirishning milliy modeliga asos solingan [1].

Oliy ta'limni zamonaviy boshqarish talablaridan biri zamonaviy texnologiyalar va ta'lim usullaridan foydalanib, innovasion tashkilotlarni rivojlantirish hamda ilmiy-innovasion ishlab chiqarishning uzluksiz zanjirini yaratish tizimni modernizasiya qilishdan iborat.

Ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holatda ijtimoiy xavfsizlik va ta'limga bo'lgan ehtiyojni qo'llab-quvvatlash uchun zarur. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi. SHu bilan birga oliy ta'limning investision jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarining yutuqlarini amaliyotga joriy etish zarurati mavjud.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida 2030 yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida «Ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» vazifasi belgilangan .

“Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish” tushunchasi, ta'lim muassasasining asoslarini samarali va natijali yuritish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, usullar va tamoyillarni qo'llab-quvvatlashni anglatadi.

Bu, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim sifatini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini va kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan. Demak, bunda oliy ta'lim muassasalarini ilmiy boshqarishning asosiy jihatlari sifatida boshqaruv xodimlarni qabul qilishda statistik ma'lumotlar, to'g'ridan-to'g'ri tanlash asosida zamonaviy menejment usullaridan foydalanish hamda zaruriy resurslarni taqsimlash orqali ta'lim tizimida faoliyat yurituvchilarni boshqarishdir [2].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda innovasion yondashuvlarning asosiy ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda innovasion yondashuvlarning asosiy ko'rsatkichlariga yangicha o'qish texnologiyalarini qo'llash (onlayn kurslar, gibril ta'lim, masfaviy ta'lim), ilmiy-tadqiqot ishlarining natijadorligini (patentlar, maqolalar, innovasiya loyihalari soni) ta'minlash kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning innovasion yondashuvlari o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi, talabalar bilimni baholash, ilmiy-tadqiqot ishlari, ish beruvchilar bilan o'zaro munosabatlar va ta'lim jarayoni bilan bog'liq boshqa jihatlarni o'z ichiga olgan ta'lim tizimi hisoblanadi.

Innovasion yondashuvlarning asosiy maqsadi mehnat bozori va butun jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun yangi texnologiyalar, metodlar va boshqaruv vositalaridan foydalanish, shuningdek, o'quv dasturlari va o'qitish usullarini doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovasiyalarni tashxislash orqali uning turlarini ajratdik. Innovasiya — bu fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, amaliyotda ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma yoki takomillashtirilgan texnologiya, xizmat yoki tashkiliy usuldir. Innovasiyalarning turlari barcha sohalarni qamrab olib ularning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim boshqaruv vakillarining samarali faoliyat yuritishi doirasidagi ushbu jarayon samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan muhim mezon universitetning iqtisodiy manfaatlariga javob beradigan, ichki va tashqi muhit talablarini tezkorlik bilan aks ettirishga tayyor bo'lgan islohotlarni shakllantirish va keyinchalik amalga oshirishdir. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari o'z tuzilmasi doirasida ham, undan tashqarida ham tashqi muhit xususiyatlarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan ongli ravishda o'zgartirish va moslashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llashi shart, bu esa yangi raqobatdosh ustunliklarni yaratish va rivojlantirishga olib keladi [3].

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, ta'lim mazmunini doimiy ravishda isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar shuningdek, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon talablari darajasiga muvofiqligini ta'minlash jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Атласова А.Д. Использование кейс – технологии в образовательном процессе//Дистанционное и виртуальное обучение. - 2010. – №10.–С.105-112.
2. Безюлёва Г.В. Психолого-педагогическое сопровождение профессиональной адаптации учащихся и студентов. Монография. — М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2008. —320 С.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. П. ф. д. дисс. - Т.: 2007. - 305 б.